

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOG TARBIYACHINING NUTQIY FAOLLIYATINI O'ZIGA XOSLIGI

Manzura Abduraxmonovna Norqo'ziyeva

JDPI Maktabgacha ta'lim metodikasi

kafedrası o'qituvchisi

Sitora Ravshan qizi Sanaqulova

JDPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Tarbiyachi uchun namunali nutqni egallash —bu uning o'z kasb-koriga tayyorligini belgilovchi ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog tarbiyachining nutqiy faolliyatini o'ziga xosligi xaqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy yuksalish, mashg'ulotlar, yetuk va barkamol, ta'limiga tayyorlash, va modernizatsiya qilish, zamonaviy dasturlar texnologiyalar.

ABSTRACT

For an educator, mastery of exemplary speech is an indicator of his readiness for his profession. This article discusses the specifics of the pedagogical activity of educators in preschool education.

Keywords: spiritual growth, training, maturity, preparation for education, and modernization, modern software technologies.

KIRISH

Har bir davlat va jamiyatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma'naviy yuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishi - bilimli, yuqori intellektual salohiyatli, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarni mujassamlashtirgan yoshlarga bog'liq hisoblanib, har jihatdan yetuk va barkamol, vatan taqdiri uchun sitqi dildan xizmat qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o'qitishni sifatli va mazmun jihatdan yuqori pog'onalariga olib chiqish avvalo o'qituvchi va tarbiyachi murabbiylar zimmasiga sharaflari va ayni paytda mas'uliyatli vazifani yuklaydi. Shu maqsadda ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2017 yil 16 avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim

tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha ustuvor vazifalar qo'yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik hujjat-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori, 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari"gi PF-5198-sonli Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi –faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qarori qabul qilindi. Mavjud muammolarni amaliy bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2016 – yil 29 – dekabrda "2017 – 2021 – yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilindi va uning asosida dastur ishlab chiqildi".¹ Mazkur qaror maktabgacha ta'lim tizimini moddiy - texnik bazasini mustahkamlash ularni malakali pedagogik kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim tarbiya jarayoniga zamonaviy dasturlar va texnologiyalar tadbiriq etishni ko'zda tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Farzandlarimizni intellektual axloqiy estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart – sharoitlar yaratish muxim hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan mazkur sohadagi islohotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta'lim tashilotlari tarmog'ini hozirgi zamon talablari va standartlari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilgan e'tibor zamirida ham kelajagimiz egalarining hech kimdan kam bo'lmay ulg'ayishlari hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lib yetishlarini ta'minlashdek ezgu maqsad mujassam. Albatta, bu boradagi islohotlar samarasini soha talablariga to'liq javob bera oladigan kadrlarsiz tasavvur etish qiyin. Shu sababli tizimdagi pedagog xodimlar mahoratini ilg'or usullar orqali muntazam oshirib borish mexanizmini yaratish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq etgan holda, uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini takomillashtirish masalasi ham dolzarb sanaladi.

Tarbiyachi o'z nutqida so'zlarni to'g'ri va aniq ishlata olsa, u holda uning nutqi bolalarga tushunarli bo'ladi. O'zbek tilining lug'ati juda ham boy, u doimo yangi

¹ 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturlarini o'rganish bo'yicha" ilmiy uslubiy risola. Toshkent. "Ma'naviyat". 2017 yil. 193-bet

so'zlar bilan to'ldirib boriladi, iste'moldan chiqqan so'zlar yo'qolib boradi. Tarbiyachi bolalar bilan nutqiy muloqotda bo'lganda, ularning yoshini hisobga olib, ona tilining lug'at boyligidan k'eng foydalanmog'i lozim.

NATIJALAR

Tarbiyachi o'z nutqning ifodaliligi ustida ishlashda og'zaki nutq uchun ifodalilikning intonatsion vositalaridan to'g'ri foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun tarbiyachi o'z nutqida urg'ularni to'g'ri ishlatish, ovoz tempini va kuchini o'zgartirish bilan so'zlarning mazmunini ajratish, to'xtamlardan nutqda ovozni vaqtincha to'xtatish (o'rinli foydalanish, nutqda ovozning balandligi va kuchiga qarab hara- kati, nutq tempi, ma'lum vaqt ichida aytiladigan so'zlar miqdori), ovoz balandligini o'zgartirish ustida mashq qilish lozim. Into- natsiya nutqni jonli, jo'shqin qiladi, fikrni to'liq va tugallangan holda bayon etishga yordam beradi.

Tarbiyachi o'z lug'atini, uning grammatik tomonini badiiy, ilmiy, maxsus va boshqa adabiyotlarni doimiy ravishda o'qib borish bilan boyitadi va takomillashtiradi. Biroq tarbiyachi adabiyotlarni o'qish jarayonida uning mazmuniga, yangi so'zlarga ahamiyat beribgina qolmasdan, balki muallifning asar mazmunini ochishda tilning qaysi vositalaridan foydalanganligiga, qaysi so'z va grammatik shakllarni ishlatganligiga, materialni qay darajada bayon etganligiga bam e'tiborni qaratishi kerak. Nutqdagi kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etmaslik natijasida yillar o'tishi bilan bu nuqsonlar mustahkamlanib, kishilar uni sezmay ham qoladi. Nutqida kamchiligi bo'lgan tarbiyachi bolalar bilan ishlashi mumkin emas. Ko'pchilik kattalar nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish mumkin emas, deb hisoblaydilar. Lekin bu fikr to'g'ri emas. O'z nutqi ustida doimiy va qat'iy ishlagan tarbiyachi nuqsonlarini bartaraf etishi mumkin.

MUHOKAMA

Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga, ta'lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o'rtoqlarini o'sishiga yordam beradi.

Tarbiyachi uchun namunali nutqni egallash —bu uning o'z kasb-koriga tayyorligini belgilovchi ko'rsatkich hisoblanadi. Taniqli pedagog, bolalarni ona tiliga o'rgatish uslub va uslu- biyotlarini ishlab chiqqan uslubiyotchi, maktabgacha tarbiya bo'yicha mashhur mutaxassis, professor Y.I.Tixeyeva tarbiyachi nutqiga yuksak baho

berib, shunday degan edi: „Bog'chada bolalar beixtiyor taqlid qiladigan namuna tarbiyachi (bog'bon)ning tilidir, tarbiyachining tili bolalar tiliga g'oyat samarali va nihoyatda kuchli ta'sir ko'rsatadigan hamma narsalarni o'zida birlashtiradigan bo'lishi kerak. Bog'bonning tili bekam-u ko'st, adabiy talaffuzning har qanday nuqsonlaridan xoli bo'lishi lozim". Har bir tarbiyachi-pedagog nutqiga qo'yilgan talablarni juda yaxshi bilgan holda o'z nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etib borishi kerak.

XULOSA

Tarbiyachi o'z lug'atini, uning grammatik tomonini badiiy, ilmiy, maxsus va boshqa adabiyotlarni doimiy ravishda o'qib borish bilan boyitadi va takomillashtiradi. Biroq tarbiyachi adabiyotlarni o'qish jarayonida uning mazmuniga, yangi so'zlarga ahamiyat beribgina qolmasdan, balki muallifning asar mazmunini ochishda tilning qaysi vositalaridan foydalanganligiga, qaysi so'z va grammatik shakllarni ishlatganligiga, materialni qay darajada bayon etganligiga ham e'tiborni qaratishi kerak.

Shunday qilib, tarbiyachi nutqidagi so'zlar aniq tanlansa, jumlar grammatik tomondan to'g'ri bo'lsa, undagi fikrlar oddiy, aniq, ravshan bo'lsa, izchil ketma-ketlikda bayon etilsa, bolalarning yoshi va psixik xususiyatlari hisobga olinsa, bunday nutq bolalar tomonidan osonlik bilan idrok qilinadi va ular uchun tushunarli bo'ladi.

REFERENCES

1. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: —Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2008.
2. Azizxo'jayeva N.«Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat». TDPU-2003
3. Manzura, N. (2021). Sustainable Activity in the Teaching Profession and Its Foundations. *Psychology and Education Journal*, 58(2), 1339-1345.
4. Abdurahmonovna, N. M. (2021). Pedagogical and Psychological Aspects of Professional Sustainability of Future Teachers.
5. Xasanova, G. (2020). Мактабгача таълим ташкилотларида халқ оғзаки ижоди воситаларидан фойдаланишнинг педагогик мазмуни. Архив Научных Публикаций JSPI.
6. Хасанова, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогларининг креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни. *Academic research in educational sciences*, 2(1).